

## **Xo'jaobod tibbiyot kolleji faoliyati**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 1987 yil iyul oyidagi 967 – sonli buyrug'iga asosan tashkil etilgan. 2004 yilda kollej maqomi berilgan.

Andijon Davlat tibbiyot instituti bilan 2016/2017 o'quv yilda rejalashtirilgan hamkorlik ishlari bo'yicha tuzilgan chora tadbirlar rejasi asosida ishlar tashkil etildi. Institutning vrachlar malakasini oshirish fakulteti jarroxlilik kafedrasida dotsenti YUnusov Ravshanbek bilan «Giyohvandlik», «OITS», kasalliklari haqida tadbirlar o'tkazildi hamda R.YUnusov bilan hamkorlikda kollej o'qituvchilari tomonidan 8 ta uslubiy qo'llanmalar yaratildi va institutning kengashi tomonidan tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limi hamda sog'liqni saqlash vazirliklardan chiqayotgan buyruq va farmonlar hamkorlikda ijrosi ta'minlandi. Kollej o'qituvchi va o'quvchilari uchun Jarroxlilik kafedrasida tomonidan ochiq darslari o'tkazildi. Institutning professor o'qituvchilari tomonidan ma'ruza matnlar yaratilib, kollej o'qituvchilariga takdim etdi. O'zaro tajriba almashish maqsadida amaliy darslar tashkil etilib, Master Klaster usulida dars o'tkazildi.

Axborot telekommunikatsiyasi, internet, xususan Ziyonetdan foydalanish darajasini oshirish, o'rganish va o'zlashtirish jarayoni amaliy kuchaytirildi. Kollej ARM fondida mavjud adabiyotlarning kataloglarini yaratishda amaliy yordam ko'rsatdilar. Kollej ARM bo'limiga yangi avlod adabiyotlari, elektron darsliklarini yaratishda hamkorlik ishlari amalga oshirildi. Kollej o'qituvchilari tomonidan yaratilgan ishchi dastur, qo'llanma va darsliklarni taqrib qilib va ularni sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Kollejda o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha nazariy ishlarda va DAKda institutning o'qituvchilari qatnashuvi ta'minlandi.

Andijon davlat tibbiyot institutiga biriktirilgan Xo'jaobod tibbiyot kolleji o'rtasidagi hamkorlik shartnomasi

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ga muvofiq ta'lim turlari integratsiyasi jarayonini chuqurlashtirish, ular orasidagi uzviylik va uzluksizlikni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 1 iyuldagi "2010-2011 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalariga qabul to'g'risida"gi 131-son Qarorining ijrosini hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va

o'rtta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 18 iyundagi 183-sonli buyruqlarini ijrosini ta'minlash maqsadida Andijon davlat tibbiyot instituti nomidan uning rektori M.M.Madazimov bir tomondan Xo'jaobod tibbiyot kolleji nomidan uning direktori ikkinchi tomondan quyidagilar bo'yicha shartlashib oldilar:

Andijon davlat tibbiyot instituti majburiyatlari:

1. O'quv ishlari bo'yicha:

Institut va kollej o'rtasida uzviy aloqani o'rnatish, hamkor kollejning ta'lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

Malakali mutaxassislar tayyorlash uchun amaldagi davlat (tarmoq) ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarini mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar ta'lim muassasalarida ortirilgan ijobiy tajribalar asosida takomillashtirilib borishga ko'maklashish;

Hamkor kollejning murojaatlari asosida institutning professor-o'qituvchilari, magistrantlari va aspirantlari tegishli o'rindoshlik asosida pedagogik faoliyat olib borishlarini tashkil etish;

Institut ilmiy-pedagogik salohiyatidan unumli foydalanib, hamkor kollejga zaruriy o'quv darsliklari va qo'llanmalarini yaratish borasida ko'maklashish;

Institut axborot resurs markazida (ARM) mavjud bo'lgan an'anaviy va elektron o'quv adabiyotlarini hamkor kollejga foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib berish;

Hamkor kollejga keltirilgan zamonaviy asbob-uskunalarni ishga tushirish, zamonaviy laboratoriya ishlarini yo'lga qo'yish va o'quv jarayoniga tadbiq etish, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar bilan ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatish;

Hamkor kollejda institut mutaxassislik kafedralarining filiallarini tashkil etish ishlarini takomillashtirib borish.

2. Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha:

Davriy ravishda institutning etakchi kafedralar professor-o'qituvchilari tomonidan hamkor kollej pedagog xodimlari bilan ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etish;

Hamkor kollejning iqtidorli o'qituvchi va o'quvchilarini ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish;

Institutning professor-o'qituvchilari hamkor kollej o'qituvchilarini ilmiy- tadqiqot ishlariga ilmiy rahbar etib tayinlash;

Institutda har yili o'tkaziladigan "YOsh olimlar" konferensiyalariga hamkor kollej o'qituvchilarining ishtirok etishiga jalb etish va ularning ilmiy maqolalarini to'plamlarda chop etish.

### 3. Malaka oshirish ishlari bo'yicha:

Hamkor kollej o'qituvchilariga institutning etakchi olimlari tomonidan dolzarb mavzular bo'yicha ma'ruzalar o'qilishini tashkil etish;

Institutning ixtisoslashtirilgan kafedralarida hamkor kollej o'qituvchilarining tajriba almashishi va kasbiy malakasini oshirishga shart-sharoitlar yaratish.

Xo'jaobod tibbiyot kollejining majburiyatlari:

#### 1. O'quv ishlari bo'yicha:

1.1. Amaldagi davlat (tarmoq) ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarning takomillashtirish bo'yicha institutning professor- o'qituvchilari bilan hamkorlikda faoliyat etishga shart-sharoitlar yaratish;

1.2. Kollej zarur bo'lgan o'quv darsliklar va qo'llanmalarni yaratishda institutning etakchi olimlari bilan shartnomalar tuzish, ular mehnatini byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan rag'batlantirish;

1.3. Institutning professor-o'qituvchilari, magistrantlari va aspirantlar salohiyatidan unumli foydalanish borasida hamkorlik ishlarini olib borish, ularni o'rindoshlik sifatida pedagogik faoliyatiga jalb etib ta'lim muassasalarida yosh, raqobatbardosh ilmiy kadrlarni tayyorlashga sharoit yaratish;

YAkuniy Davlat attestatsiyasi va kasbiy-amaliy imtihonlari ishlariga institut professor-o'qituvchilarini jalb etish;

Institut professor-o'qituvchilarini kollej o'qituvchi va

o'quvchilari uchun ko'rgazmali ma'ruzalar o'qish uchun taklif

etish.

2. Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha:

Iqtidorli o'qituvchi va o'quvchilarga ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun kerakli sharoitlarni yaratish;

Pedagog xodimlarning yozgan ilmiy maqolalarini ilmiy to'plam va jurnallarda chop etilishiga ko'maklashish;

Hamkorlikda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlariga kerakli bo'lgan laboratoriya jihozlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyatlar yaratish.

3. Malaka oshirish ishlari bo'yicha.

Kollej o'qituvchilari uchun dolzarb bo'lgan mavzularda ma'ruzalar tayyorlash uchun institutning ilmiy salohiyatidan foydalanish;

Fan o'qituvchilari jadval asosida institutga tegishli fan kafedralarida tajriba almashish va malaka oshirish ishlarini ta'minlash.

4. Boshqa shartlar bo'yicha:

Pedagogik faoliyatiga YAkuniy Davlat Attestatsiyasi hay'ati azolari malaka oshirish ishlariga jalb qilingan institut professor-o'qituvchilarining mehnat haqqini belgilangan tartibda to'lash;

Darslik va o'quv qo'llanmalari yaratgan mualliflarga belgilangan tartibda haq to'lanishini ta'minlash, ularni rag'batlantirish;

4.3. SHartnoma bandlari bo'yicha tegishli hamkorlik dasturlarini ishlab chiqilishini ta'minlash;

4.4. SHartnomani amal qilish muddati tomonlar imzolagan kundan boshlab 5 yil.

5. Tomonlar mas'uliyati:

5.1. SHartnoma bandalarini bajarmagan tomonga yuqori tashkilot tomonidan intizomiy jazo choralari ko'riladi.

**Xo'jaobod tibbiyot kolleji direktori:**

**Temirho'jayeva Odinahon Najmiddinovna**

**Tel: +99890-572-61-77**

**Manzil:**

**Andijon viloyati Xo'jaobod tumanii**

**Oltin vodi QFY**

**Solpi MFY Amir Temur ko'chasi 4-uy**

**Qabul kunlari**

**Dushanba—Juma: 9:00 – 17:00**

**Shanba va Yakshanba: 11:00 – 15:00**

**Electron manzil: [an.xtk@markaz.uz](mailto:an.xtk@markaz.uz)**